

TOLKIEN VA ROWLING ASARLARIDA YAXSHILIK VA YOVUZLIKNING MIFOLOGIK MODEL: QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLIL

Nurmatova Madina Toxir qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Email: nurmatovamadina69@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20772685>

Annotatsiya: Mazkur maqolada J.R.R.Tolkien (Jon Ronald Ruel Tolkien)ning *The Lord of the Rings* ("Uzuklar hukmdori") hamda J.K.Rowling (Joan Ketlin Rowling)ning *Harry Potter* ("Garri Potter") asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tadqiq etiladi. Tadqiqotda mifologik dualizm, arxetip nazariyasi va qahramon modeli asosiy nazariy tayanch sifatida qo'llanildi. Tahlil natijalari Tolkien va Rowling asarlarida yaxshilik va yovuzlik qarama-qarshiligi umumiy mifologik ildizlarga ega ekanligini, biroq ushbu modelning badiiy talqinida sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Tolkienda yovuzlik kosmik va tashqi kuch sifatida tasvirlansa, Rowling asarlarida u insonning axloqiy tanlovi va ruhiy buzilishi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Tadqiqot zamonaviy fantaziya adabiyotida mifologik obrazlarning transformatsiyasi va axloqiy konsepsiyalarning qayta talqin qilinishini yoritadi.

Kalit so'zlar: mifologik model, yaxshilik, yovuzlik, arxetip, dualizm, Tolkien, Rowling, fantaziya adabiyoti.

Abstract: This article examines the mythological model of good and evil in J.R.R. Tolkien's *The Lord of the Rings* and J.K. Rowling's *Harry Potter* series through a comparative-typological approach. The study employs mythological dualism, archetypal theory, and the hero model as its main theoretical framework. The findings reveal that both authors draw on common mythological foundations; however, they interpret the opposition between good and evil in different ways. In Tolkien's works, evil appears primarily as a cosmic and external force, whereas Rowling presents it as the result of moral choice and psychological corruption. The study highlights the transformation of mythological patterns and the reinterpretation of moral concepts in contemporary fantasy literature.

Keywords: mythological model, good, evil, archetype, dualism, Tolkien, Rowling, fantasy literature.

Аннотация: В данной статье на основе сравнительно-типологического подхода исследуется мифологическая модель добра и зла в произведениях Джона Рональда Руэла Толкина «Властелин колец» и Джоан Кэтлин Роулинг «Гарри Поттер». В исследовании в качестве основных аналитических категорий используются мифологическая модель, архетип и дуалистические представления. Результаты анализа показывают, что в произведениях обоих авторов противостояние добра и зла имеет общие мифологические корни, однако их художественная интерпретация существенно различается. В произведениях Толкина зло представлено как космическая и внешняя сила, тогда как у Роулинг оно рассматривается как результат нравственного выбора и духовной деградации личности. Исследование раскрывает трансформацию мифологических образов и переосмысление моральных концепций в современной фэнтезийной литературе.

Ключевые слова: мифологическая модель, добро, зло, архетип, дуализм, Толкин, Роулинг, фэнтезийная литература.

KIRISH

Mifologiya insoniyatning eng qadimiy tafakkur tizimlaridan biri bo'lib, u olamning yaratilishi, insonning mavjudligi va yaxshilik hamda yovuzlik o'rtasidagi munosabatlarni izohlashga xizmat qilgan. Ko'plab mifologik tizimlarda olam qarama-qarshi kuchlar kurashi asosida talqin qilinadi. Yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik mifologik tafakkurning eng barqaror va universal elementlaridan biri hisoblanadi (Segal, 2015). Shu sababli mazkur dualistik model keyingi davr adabiyotida ham saqlanib qolgan va turli janrlarda qayta talqin qilingan.

Fantaziya adabiyoti mifologik an'analarni eng faol davom ettirgan adabiy yo'nalishlardan biridir. Xususan, Tolkien va Rowling asarlari qadimgi mifologik strukturalarni zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtirganligi bilan ajralib turadi. Har ikki muallif yaratgan badiiy olamlarda yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash markaziy syujet elementlaridan biri bo'lsa-da, ushbu kurashning mohiyati va ifodalanish shakllari o'zaro farqlanadi.

Arxetip nazariyasiga ko'ra, insoniyat ongida tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan universal obrazlar va syujet modellari mavjud bo'lib, ular turli madaniyatlar hamda adabiy matnlarda takroran namoyon bo'ladi (Jung, 2014). Mifologik qahramon, donishmand yo'lboshchi, yovuz hukmdor va qutqaruvchi kabi arxetiplar fantaziya adabiyotida ham muhim o'rin egallaydi. Qahramon haqidagi nazariyasida turli davr va madaniyatlardagi qahramonlar umumiy syujet modeliga ega (Campbell, 2008). Ushbu nazariya Tolkien va Rowling asarlaridagi qahramonlar tizimini tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tolkien yaratgan O'rta Yer mifologik jihatdan mukammal ishlab chiqilgan badiiy olam bo'lib, unda yaxshilik va yovuzlik kosmik miqyosdagi qarama-qarshilik sifatida namoyon bo'ladi. Freemanning fikricha, Tolkien dunyosida yovuzlik mustaqil yaratuvchi kuch emas, balki mavjud ezgulikning buzilgan shaklidir (Freeman, 2020). Ushbu model Morgoth va Sauron obrazlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Rowling yaratgan sehrgarlar olamida esa yaxshilik va yovuzlik ko'proq axloqiy tanlov bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Metla va Sudha Devi (2024) Rowling asarlarida fidoyilik, muhabbat va tavba motivlari yaxshilikning asosiy ifodasi sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Voldemort obrazi esa insoniy qadriyatlarni inkor etish natijasida shakllangan yovuzlik modelini ifodalaydi.

Tadqiqotning dolzarbligi Tolkien va Rowling asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli qanday transformatsiyaga uchraganini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Mazkur masala zamonaviy fantaziya adabiyotining axloqiy va mifologik asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi Tolkienning “Uzuklar hukmdori” va Rowlingning “Garri Potter” asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modelini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot qiyosiy-tipologik, mifologik va arxetipik yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Qiyosiy-tipologik metod Tolkien va Rowling asarlarida uchraydigan o'xshash mifologik strukturalarni aniqlash hamda ularning funksional farqlarini ochib berishga xizmat qildi.

Tadqiqotda Jungning arxetip nazariyasidan foydalanildi. Ushbu nazariyaga ko'ra, qahramon, donishmand, yovuz hukmdor va qutqaruvchi kabi universal obrazlar insoniyatning kollektiv

ongida shakllangan bo'lib, turli davrlar adabiyotida takroran uchraydi (Jung, 2014). Shu asosda Frodo Beggins, Garri Potter, Gandalf, Sauron va Voldemort obrazlari tahlil qilindi.

Shuningdek, mifopoetik yondashuv yordamida qadimgi mifologik motivlarning zamonaviy fantaziya adabiyotida qayta talqin qilinishi o'rganildi. Adabiyot ko'pincha mifologik syujet va obrazlarning transformatsiyasi asosida shakllanadi (Frye, 2000). Shu nuqtai nazardan Tolkien va Rovling asarlaridagi yaxshilik hamda yovuzlik modellari mifologik an'analar bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida hermenevtik metod ham qo'llanilib, badiiy matnlarning semantik qatlamlari, ramziy ma'nolari va axloqiy konsepsiyalari talqin qilindi. Ushbu metod yordamida yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilikning nafaqat syujet elementi, balki mifologik dunyoqarashning markaziy strukturasi ekanligi aniqlashtirildi.

NATIJALAR VA TAHLIL

Mazkur tadqiqot davomida J.R.R. Tolkienning “Uzuklar hukmdori” va J.K. Rovlingning “Garri Potter” asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tahlil natijalari har ikki asarda yaxshilik va yovuzlik qarama-qarshiligi markaziy o'rin egallashini, biroq ushbu modelning badiiy talqinida muhim farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Quyida tadqiqot natijalari va ularning tahlili keltiriladi.

3.1 Tolkien asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli

Tolkien asarlarida yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilik butun badiiy olamning asosiy strukturaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Muallif yaratgan O'rta Yer mifologik tizimida ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash nafaqat alohida qahramonlar faoliyatida, balki kosmik miqyosdagi kuchlar to'qnashuvi sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan Tolkienning mifologik modeli qadimgi german-skandinav mifologiyasi hamda xristian an'alaridagi dualistik qarashlar bilan chambarchas bog'liq.

Freemanning ta'kidlashicha, Tolkien dunyosida yovuzlik mustaqil yaratuvchi kuch emas, balki mavjud yaxshilikning buzilgan shakli sifatida talqin qilinadi (Freeman, 2020). Bu qarash Tolkienning butun mifologik konsepsiyasida kuzatiladi. Yovuzlik ezgulikdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi, aksincha, uning buzilishi va noto'g'ri yo'nalishga burilishi natijasida yuzaga keladi. Shu sababli Tolkien asarlarida yovuzlik yaratuvchanlik emas, vayronkorlik bilan tavsiflanadi.

Mazkur modelning dastlabki ko'rinishi Morgoth obrazida namoyon bo'ladi. Morgoth hokimiyatga mutlaq egalik qilish istagi tufayli ezgulik yo'lidan chekinadi va natijada yovuzlikning manbaiga aylanadi (Korpua, 2015). U o'zini boshqa mavjudotlardan ustun qo'yib, ularni teng mavjudotlar sifatida emas, balki o'z hukmronligi ostidagi vositalar sifatida ko'ra boshlaydi. Shu tariqa Tolkien mifologiyasida yovuzlikning ildizi hokimiyatga cheksiz intilish va o'z manfaatini mutlaq qadriyat darajasiga ko'tarish bilan bog'lanadi.

Morgoth yaratgan yovuzlik modeli keyinchalik Sauron obrazida davom ettiriladi. Sauron Tolkien asarlaridagi eng muhim antagonistlardan biri bo'lib, zulmat, hukmronlik va mutlaq nazorat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. U barcha xalqlar va mavjudotlarni Yagona Uzuk yordamida o'z irodasiga bo'ysundirishga intiladi. Shu sababli Uzuk oddiy sehrli buyum emas, balki hokimiyat vasvasasi va axloqiy buzilishning mifologik timsoli hisoblanadi. Uzukning ta'siri ostida qolgan qahramonlar o'z ichki zaifliklari bilan yuzlashishga majbur bo'ladilar. Bu holat Tolkienning yovuzlik haqidagi konsepsiyasi tashqi kuch bilan bir qatorda insonning ichki zaifliklarini ham qamrab olishini ko'rsatadi.

Vehkomäki (2020) Morgoth, Sauron va Voldemort obrazlarini mifologik yovuzlik arxetipining turli ko'rinishlari sifatida talqin qiladi. Tadqiqotchining fikricha, ushbu obrazlar

hokimiyatga intilish, boshqalar ustidan nazorat o'rnatishga bo'lgan istak hamda axloqiy buzilish kabi umumiy xususiyatlarga ega. Tolkien asarlarida Sauron nafaqat individual yovuz qahramon, balki butun zulmat kuchlarining timsoli sifatida tasvirlanadi.

Yaxshilik modeli esa Gandalf, Aragorn va Frodo Beggins obrazlari orqali namoyon bo'ladi. Ular hokimiyatni egallashga emas, balki uni cheklash va undan voz kechishga intiladilar. Ayniqsa, Frodo Beggins obrazi Tolkienning yaxshilik haqidagi qarashlarini aks ettiruvchi markaziy qahramon hisoblanadi. Kampbellning qahramon sayohati nazariyasiga ko'ra, qahramon sinovlar orqali ma'naviy kamolotga erishadi (Campbell, 2008). Frodo ham Urukni yo'q qilish yo'lida ko'plab sinovlarni boshdan kechirib, nafaqat tashqi yovuzlik, balki o'z ichki zaifliklari bilan ham kurashadi.

Gandalf obrazi esa donishmand yo'lboshchi arxetipining yorqin namunasidir. U qahramonlarga yo'l ko'rsatadi, ularni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi va ezgulik kuchlarining birlashuviga xizmat qiladi. Jung nazariyasiga ko'ra, bunday obrazlar insoniyatning kollektiv ongida shakllangan universal arxetiplarning adabiyotdagi ifodasi hisoblanadi (Jung, 2014).

Shunday qilib, Tolkienning mifologik modelida yaxshilik va yovuzlik kosmik xarakterga ega bo'lib, ular yorug'lik va zulmat, erkinlik va hukmronlik, fidoyilik va xudbinlik kabi qarama-qarshi tushunchalar orqali ifodalanadi. Muallif yovuzlikni ezgulikning buzilgan shakli sifatida talqin qilarkan, yaxshilikni esa fidoyilik, kamtarlik va axloqiy qat'iyat bilan bog'laydi.

3.2 Rovling asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli

Joan Ketlin Rovlingning “Garri Potter” turkumida yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi kurash markaziy mavzulardan biri hisoblanadi. Biroq Tolkien asarlaridan farqli ravishda Rovling yovuzlikni kosmik va tashqi kuch sifatida emas, balki insonning axloqiy tanlovi va ruhiy buzilishi bilan bog'liq holda talqin qiladi. Shu sababli “Garri Potter” turkumida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli ko'proq psixologik va axloqiy xarakterga ega.

Asar davomida Garri Potter va Voldemort yaxshilik hamda yovuzlikning ikki qarama-qarshi qutbi sifatida tasvirlanadi (Sharma, 2022). Shu nuqtai nazardan, Rovling yovuzlikni mustaqil hodisa sifatida emas, balki yaxshilikning mohiyatini ochib beruvchi qarama-qarshi kuch sifatida qo'llaydi. Shu jihatdan Garri va Voldemort obrazlari mifologik dualizmning zamonaviy talqinini ifodalaydi. Bir tomonda muhabbat, fidoyilik va insonparvarlik tursa, ikkinchi tomonda hokimiyatga intilish, nafrat va xudbinlik turadi.

Rovling yaratgan yovuzlik modelining markazida Voldemort obrazi turadi. Voldemort o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday axloqiy me'yorlarni buzishga tayyor bo'lgan qahramon sifatida tasvirlanadi. U o'limni eng katta zaiflik deb hisoblaydi va o'lmaslikka erishish yo'lida insoniylikdan voz kechadi. Mulholland (2007) Voldemortning shakllanishini psixologik nuqtai nazardan izohlar ekan, uning shaxsiyati muhabbatning yo'qligi, yolg'izlik va hukmronlikka bo'lgan obsesif ehtiyoj asosida shakllanganligini qayd etadi. Shu sababli Voldemort nafaqat mifologik yovuzlik timsoli, balki axloqiy buzilishning ham ramzi hisoblanadi.

Sharma (2022) Voldemort yovuzlikni ongli ravishda tanlashini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqotchining fikricha, u o'z harakatlarining oqibatlarini tushungan holda yovuzlik yo'lini tanlaydi. Bu jihat Rovling yaratgan mifologik modelning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Agar Tolkien asarlarida yovuzlik ko'proq kosmik kuchlar bilan bog'liq bo'lsa, Rovlingda u insonning shaxsiy qarori va axloqiy pozitsiyasi natijasida yuzaga keladi.

Voldemort va Garri Potter obrazlari o'rtasidagi qarama-qarshilik ham aynan tanlov masalasiga asoslanadi. Asarlarda har ikki qahramonning bolalik hayotida ma'lum o'xshashliklar mavjud. Ikkalasi ham yetim bo'lib ulg'aygan, sehrli qobiliyatlarga ega va o'z taqdirilari bilan bog'liq

murakkab sinovlarga duch kelgan. Biroq ular qabul qilgan qarorlar turlicha bo'lgani sababli mutlaqo qarama-qarshi yo'llarni tanlaydilar. Sharma (2022) ushbu holat orqali Rovling yaxshilik va yovuzlik nasl yoki taqdir bilan emas, balki insonning axloqiy tanlovi bilan belgilanishini ko'rsatishini qayd etadi.

Yaxshilik modeli esa Garri Potter obrazi orqali namoyon bo'ladi. Garri klassik qahramon arxetipining zamonaviy talqini bo'lib, uning asosiy kuchi sehr emas, balki fidoyilik, jasorat va hamdardlik kabi axloqiy fazilatlarida namoyon bo'ladi. Layman (2017) Garri Potter obrazini tahliliga ko'ra, hamdardlik va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati qahramonning eng muhim xususiyatlaridan biridir (Layman, 2017). Aynan shu jihat Garrini Voldemortdan ajratib turadi.

Rovling asarlarida muhabbat alohida mifologik va axloqiy ahamiyat kasb etadi. Johnston (2011) Garri Potter turkumida qurbonlik va muhabbat motivlari yaxshilikning asosiy manbai sifatida tasvirlanishini qayd etadi. Ayniqsa, Garrining onasi tomonidan amalga oshirilgan fidokorona qurbonlik butun syujet davomida himoya va najot timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa Rovling yaxshilikni jismoniy kuch yoki sehr bilan emas, balki muhabbat va fidoyilik bilan bog'laydi.

Metla va Sudha Devi (2024) Rovling asarlarida evkatastrofa tushunchasining muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Evkatastrofa eng og'ir va umidsiz vaziyatda yuz beradigan ijobiy burilish sifatida izohlanadi. Tadqiqotchilar fikricha, Garri Potter turkumida yaxshilikning g'alabasi ko'pincha aynan fidoyilik va muhabbat tufayli amalga oshadi. Bu holat Rovlingning yaxshilik haqidagi qarashlari mifologik an'analar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Asar yakunida Garri Potter Voldemortga o'z qilmishlari uchun tavba qilish imkoniyatini taklif qiladi. Biroq Voldemort pushaymonlikni rad etadi va o'z qudratiga haddan tashqari ishonishi natijasida mag'lubiyatga uchraydi. Metla va Sudha Devi (2024) ushbu epizodni tahlil qilar ekan, yovuzlikning asosiy sababi kuch yetishmasligi emas, balki muhabbat, fidoyilik va insoniy qadriyatlarni inkor etish ekanligini qayd etadi. Shu tariqa Rovling yaratgan mifologik modelda yaxshilik yovuzlikni zo'ravonlik orqali emas, balki axloqiy ustunlik orqali yengadi.

Demak, Rovling asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli axloqiy tanlov, muhabbat, hamdardlik va fidoyilik kabi qadriyatlar asosida shakllanadi. Voldemort va Garri Potter obrazlari ushbu modelning qarama-qarshi qutblarini tashkil etib, zamonaviy fantaziya adabiyotida mifologik dualizmning yangi talqinini namoyon etadi.

3.3 Qiyosiy tahlil

Tolkien va Rovling asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli umumiy arxetipik asosga ega bo'lsa-da, ularning badiiy talqinida muhim farqlar kuzatiladi. Har ikki muallif mifologik an'analardan foydalanib, yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi qarama-qarshilikni markaziy syujet elementi sifatida tasvirlaydi. Biroq Tolkien ushbu qarama-qarshilikni kosmik va ontologik darajada talqin qilsa, Rovling uni insonning axloqiy tanlovi va psixologik holati bilan bog'laydi.

Tolkien asarlarida yovuzlikning ildizi kosmik tartibning buzilishiga borib taqaladi. Morgoth va Sauron obrazlari mutlaq yovuzlik kuchlarini ifodalovchi arxetiplar sifatida namoyon bo'ladi. Freemanning ta'kidlashicha, Tolkien dunyosida yovuzlik mustaqil yaratuvchi kuch emas, balki ezgulikning buzilgan shaklidir (Freeman, 2020). Shu sababli yovuzlikning asosiy belgisi hukmronlikka intilish va mavjud tartibni izdan chiqarish hisoblanadi. Morgoth va Sauronning maqsadi boshqa mavjudotlarni o'z irodasiga bo'ysundirishdan iborat bo'lib, ular erkinlik va uyg'unlikka qarshi turuvchi kuchlar sifatida tasvirlanadi.

Rovling asarlarida esa yovuzlik insonning ichki dunyosi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Voldemort mutlaq yovuzlik timsoli bo'lsa-da, uning shakllanishi kosmik kuchlar bilan emas, balki shaxsiy tanlovlar va axloqiy buzilish bilan izohlanadi. Sharma (2022) hamda Mulholland (2007) Voldemortning yovuzlik yo'lini ongli ravishda tanlaganligini ta'kidlaydi. Shu sababli Rovling yaratgan modelda yovuzlikning manbai tashqi kuch emas, balki insonning muhabbat, hamdardlik va axloqiy qadriyatlarni rad etishidir.

Har ikki muallifning qahramonlari ham mifologik qahramon arxetipiga mansubdir. Frodo Beggins va Garri Potter o'z dunyosini yovuzlikdan qutqarish vazifasini zimmasiga olgan qahramonlar sifatida tasvirlanadi. Kampbellning qahramon sayohati modeli nuqtai nazaridan qaralganda, har ikki qahramon sinovlar, yo'qotishlar va ma'naviy o'sish jarayonini boshdan kechiradi. Biroq Frodo uchun asosiy sinov Uzuk vasvasasiga qarshi kurash bo'lsa, Garri uchun asosiy sinov muhabbat va fidoyilik tamoyillariga sodiq qolishdir.

Vehkomäki (2020) Morgoth, Sauron va Voldemort obrazlarini mifologik yovuzlik arxetipining turli ko'rinishlari sifatida talqin qiladi. Biroq ushbu arxetiplarning funksiyasi bir xil emas. Tolkienda yovuzlik dunyo tartibiga qarshi turgan kosmik kuch sifatida namoyon bo'lsa, Rowlingda u insonning axloqiy tanlovi natijasida shakllangan ijtimoiy va psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, yaxshilik modelida ham muhim farqlar mavjud. Tolkien asarlarida yaxshilik ko'proq yorug'lik, tartib va ilohiy uyg'unlik bilan bog'langan bo'lsa, Rowling asarlarida u muhabbat, do'stlik va fidoyilik orqali ifodalanadi. Johnston (2011) va Metla hamda Sudha Devi (2024) Rowlingning yaxshilik haqidagi qarashlari qurbonlik va kechirim motivlari bilan chambarchas bog'liqligini qayd etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Tolkien klassik mifologik dualizm an'analarini saqlab qolgan bo'lsa, Rowling ushbu modelni zamonaviy axloqiy va psixologik mazmun bilan boyitgan. Natijada har ikki muallifning asarlarida yaxshilik va yovuzlik qarama-qarshiligi mavjud bo'lsa-da, uning mohiyati va funksiyasi turlicha namoyon bo'ladi.

Tolkien va Rowling asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli

XULOSA

Tadqiqot natijalari Tolkien va Rowling asarlarida yaxshilik va yovuzlikning mifologik modeli umumiy arxetipik ildizlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Har ikki muallif mifologik an'analar va universal obrazlardan foydalanib, yaxshilik hamda yovuzlik o'rtasidagi kurashni badiiy olamning

Tahlil mezonlari	J.R.R. Tolkien ("Uzuklar hukmdori")	J.K. Rowling ("Garri Potter")
Yovuzlik tabiati	Kosmik va tashqi kuch (Morgoth, Sauron)	Axloqiy va psixologik tanlov (Voldemort)
Yovuzlik manbai	Hokimiyatga mutlaq intilish va kosmik buzilish	Nafrat, qo'rquv va muhabbatni inkor etish
Yaxshilik modeli	Tartib, yorug'lik va uyg'unlik	Muhabbat, fidoyilik va hamdardlik
Qahramon arxetipi	Frodo Baggins	Garri Potter
Yovuzlikka qarshi kurash	Kosmik miqyosdagi kurash	Axloqiy va shaxsiy kurash
Mifologik asos	German-skandinav va xristian mifologiyasi	Mifologik sinkretizm va zamonaviy fantaziya
Dualizm turi	Mutlaq dualizm	Axloqiy-psixologik dualizm
Yakuniy g'oya	Ezgulik tartibni tiklaydi	To'g'ri tanlov insonni ezgulik olib boradi

markaziy elementi sifatida tasvirlaydi. Biroq ushbu modelning talqinida muhim farqlar mavjud.

Tolkien asarlarida yovuzlik kosmik xarakterga ega bo'lib, u ezgulikning buzilgan shakli sifatida namoyon bo'ladi. Morgoth va Sauron obrazlari mutlaq yovuzlik arxetiplarini ifodalab, hukmronlik va zulmat timsoli sifatida tasvirlanadi. Yaxshilik esa fidoyilik, kamtarlik va tartibni saqlash bilan bog'lanadi.

Rowling asarlarida esa yovuzlik insonning ichki dunyosi va axloqiy tanlovlari bilan chambarchas bog'liq. Voldemort obrazi muhabbat va insoniy qadriyatlarni rad etish natijasida yuzaga kelgan yovuzlik modelini ifodalasa, Garri Potter obrazi fidoyilik, hamdardlik va axloqiy qat'iyat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli Rowling yaratgan mifologik modelda yaxshilikning g'alabasi kuch orqali emas, balki muhabbat va to'g'ri tanlov orqali amalga oshadi.

Umuman olganda, Tolkien klassik mifologik dualizm an'alarini davom ettirgan bo'lsa, Rowling ushbu modelni zamonaviy axloqiy va psixologik mazmun bilan boyitgan. Bu esa fantaziya

adabiyotida mifologik obrazlarning transformatsiyasi va ularning yangi ma'naviy mazmun kasb etganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Campbell, J. (2008). *The hero with a thousand faces* (3rd ed.). New World Library.
2. Freeman, A. M. (2020). Flesh, world, devil: The nature of evil in J.R.R. Tolkien. *Journal of Inklings Studies*, 10(2), 139–171. <https://doi.org/10.3366/ink.2020.0077>
3. Frye, N. (2000). *Anatomy of criticism: Four essays*. Princeton University Press.
4. Johnston, S. (2011). Harry Potter, eucatastrophe, and Christian hope. *Logos: A Journal of Catholic Thought and Culture*, 14(1), 66–90.
5. Jung, C. G. (2014). *The archetypes and the collective unconscious* (2nd ed.). Routledge.
6. Korpua, J. (2015). Good and evil in J.R.R. Tolkien's legendarium: Concerning dichotomy between visible and invisible. In J. Korpua, I. Hapala, & J. Rautala (Eds.), *Theoretical and methodological approaches to Tolkien* (pp. 67–84). Walking Tree Publishers.
7. Layman, L. M. (2017). *Magically empathetic: An investigation of theory of mind and empathy in the Harry Potter series* (Master's thesis, University of Tennessee at Chattanooga).
8. Metla, S., & Sudha Devi, Y. V. (2024). Meaningful miracles: Unraveling eucatastrophe in the select fantasy fiction of J.K. Rowling. *RUDN Journal of Studies in Literature and Journalism*, 29(4), 673–684. <https://doi.org/10.22363/2312-9220-2024-29-4-673-684>
9. Mulholland, N. (2007). *The psychology of Harry Potter: An unauthorized examination of the boy who lived*. BenBella Books.
10. Segal, R. A. (2015). *Myth: A very short introduction* (2nd ed.). Oxford University Press.
11. Sharma, S. (2022). A study of good and evil in J.K. Rowling's Harry Potter series. *Journal of New Zealand Studies*, 34, 327–331.
12. Tolkien, J. R. R. (1984). On fairy-stories. In C. Tolkien (Ed.), *The monsters and the critics and other essays* (pp. 109–161). Houghton Mifflin.
13. Vehkomäki, A. (2020). *Mythological archetypes in the legendarium of J.R.R. Tolkien and J.K. Rowling's Harry Potter series* (Bachelor's thesis, University of Turku).
14. Djurayeva, S. (2026). The role of myth and folklore in fantasy fiction. *International Journal of Artificial Intelligence*, 6(3), 52–57.
15. Weed, J. H. (2004). Voldemort, Boethius, and the destructive effects of evil. In D. Deavel & S. E. Klein (Eds.), *Harry Potter and philosophy* (pp. 148–149). Open Court.